

**AZIZBEK NOROVNING “EYNSHTEYN JUMBOG’I” HIKOYASINING BADIY
POETIKASI****ARTISTIC POETICS OF THE STORY "EINSTEIN'S RIDDLE" BY AZIZBEK
NOROV****Ergasheva Xurshida***Qoraqalpoq Davlat Universiteti O'zbek tili va adabiyoti fakulteti: adabiyotshunoslik
(o'zbek tili) yo'nalishi 2-kurs magistranti*

Annotatsiya: *Ijodkor uchun eng avvalo muhim fazilatlardan biri samimiyatdir. U bor joyda to'qima gaplar, aldamchi kayfiyatlar bo'lmaydi. Ijod keng bir maydon, har kim qo'lidan kelganicha chin yurakdan yozgani kabi. Azizbek Norovning o'zbek hikoyachiligidagi yosh avloddir, nasrdagi faoliyati bugungi kundagi mohiyati va mulohazalari taqdim etilgan.*

Kalit so'zlar: *Istiqlol davri, hikoya, obrazlar, qahramon, yutuqlar, kamchiliklar, Azizbek Norov, "Eynshteyn jumbog'i", so'z san'ati.*

Abstract: *One of the most important qualities for a creator is sincerity. Where he is, there will be no false words and deceptive moods. Creativity is a wide field, as everyone writes from the heart as much as possible. Azizbek Norov is a young generation in Uzbek storytelling, the current essence and opinions of his prose work are presented.*

Key words: *Independence period, story, characters, hero, achievements, shortcomings, Azizbek Norov, "Einstein's puzzle", word art.*

Аннотация: *Одно из важнейших качеств творца – искренность. Там, где он, не будет лживых слов и обманчивых настроений. Творчество – это широкое поле, ведь каждый пишет от души, насколько это возможно. Azizbek Norov – молодое поколение в узбекском сказочничестве, представлены современная сущность и мнения о его прозаическом творчестве.*

Ключевые слова: *Период независимости, сюжет, персонажи, герой, достижения, недостатки, Azizbek Norov, «загадка Эйнштейна», художественный текст.*

Bugungi kunda adabiyotimizda, uning barcha tur va janrlari g'oyaviy-badiiy mundarijasida inson va hayotni tushunish, uni badiiy kashf etish har bir ijodkorning individual o'ziga xosligini yorqin tasvirlamoqda. Milliy g'oya va mustaqillik mafkurasi badiiy ijodda asosiy tartibga aylangan hozirgi adabiy jarayonda so'z erkinligi, uslublar rang-barangligi yangicha qarashlarni, jahon adabiyoti tajribasidagi yuksak jihatlarni ijobiy qabul qilib, yanada rivojlanish yo'lidan davom etmoqda. Shuningdek, bugungi o'zbek nasrida bu jihatdan sezilarli yangilanishlar, yuksalishlar kuzatilmoqda.

Hikoyachilik badiiy adabiyotning eng sermahsul, ilg'or hamda tezkor janri hisoblanadi. Ayniqsa, o'zbek nasri, xususan, hikoyachiligi so'ngi yillarda shakl va

mazmun jihatdan boyib, turfa mavzularda inson turmush-tarzini, uning ichki dunyosini, alohida olingan shaxs hayotining ulkan bir olam ekanligini tasvirlashga harakat etilmoqda. Zero, “Adabiyot inson tuyg’ulariga, dardiga, hayot yo’liga kirib borishi kerak. Odam nima uchun shunday turmush kechiryapti? Inson hayotining mazmuni nima, u inson sifatida qanday xususiyatlarga ega, uning o’ziga xos tomonlari qanday – asarda shular to’liqligicha aks ettirilishi shart”⁴⁹. Bugungi o’zbek nasrida o’ziga xos uslubga, o’z ohangiga bilan kirib kelayotgan yosh yozuvchilarimizdan biri Aziz Norovdir. Yozuvchi adabiyotga hikoyanavis sifatida kirib keldi. Adibning “Eynshteyn jumbog’i” (2011), “Kimningdir hikoyasi” (2021), “O’tmish ko’z yumgan voqea” (2012) va “Zulmat va ziyo” kabi hikoyalari orqali allaqachon kitobxonlarning sevimli ijodkoriga aylanib bormoqda. Badiiy so’z orqali Insonni ulug’lash, ma’naviyatini yuksaltirish, narsa va hodisalarni go’zallik va ezgulik nuqtai nazardan anglash va badiiy kashf etishda yozuvchi o’ziga xos individual uslubga ega. Hikoyalarning tagma’nosida yuksak insoniy tuyg’ular, hayotda yuz bergan voqealarni tasvirlashdan ko’ra insonlararo munosabatlarni aks ettirishga ko’proq ahamiyat qaratiladi. Zero, “badiiy asarning matn yuzida ko’rinib turgan holat, maqsadlari bilan bir qatorda undan tashqari, shu matn zamirida ochiq namoyon bo’lib turmagan, lekin yozuvchining badiiy niyatlarini aks ettirishda muhim rol o’ynovchi xususiyatlar ham shubhasiz bo’ladiki, ana shu jihatlarni, muallifning asl maqsadlaridan ko’p ham uzoqlashtirmagan ravishda aniqlash va ilmiy dalillangan suratda yoritish, bir jihatdan, yozuvchi mahoratini ko’rsatish, ikkinchi bir jihatdan, asarning asl qimmatini anglash va his etishda alohida o’rin tutadi”⁵⁶. Ayni shu jihatdan Azizbek Norovning “Eynshteyn jumbog’i” hikoyasi ham xarakterlidir. Yozuvchining hikoyalariga ijodkor Sobir O’nar muqaddima yozgan.

Mazkur to’plamga yosh yozuvchi Aziz Norovning uch hikoyasi kiritilgan: “Eynshteyn jumbog’i”, “O’tmish ko’z yumgan voqea”, “Zulmat va ziyo”.

Aytish joizki, Aziz boshlovchi havaskor emas, yozish malakasi borasida allaqachon “aql tishi” chiqqan. Shu bois dabdurustdan unga aql o’rgatib bo’lmaydi.

Dastlabki hikoya bundan qariyb o’n yil avval bitilgan ekan. Tuppa-tuzuk, risoladagiday hayot kechirayotgan, hatto lavozimi ham bir pog’ona yuqorilagan inson tasodifan somsa o’ralgan gazetadagi Eynshteyn jumbog’ini o’qib qoladi-yu, butkul halovati yo’qoladi. Oxir-oqibat shu jumboqni yechish ilinjida oila, ish, butun hayot tarzi ishdan chiqadi. Bu holat o’n olti yil davom etadi va kunlarning birida boshqa bir gazetada xuddi shu jumboqqa ko’zi tushib, avvalgi gazeta da chop etilgan jumboqda birgina “oldida” degan so’z tushib qolganini payqaydi. Hazrat Navoiy aytganidek, bir harf dunyoni barbod aylashiga jonli misol.

Balki, bu voqeaga ishonmaslik mumkindir, biroq yozuvchi unga o’quvchini iqror qilishi kerak bo’ladi. Adibning mahorati ham shu yerda ko’rinadi. Buni qanchalik uddalaganiga kitobxon ham hikoyani o’qigach, amin bo’ladi.

“O‘tmish ko‘z yumgan voqea”dagi jarayon asli qaysi tarixiy manbaga asoslanganini bilish qiʻyin. Tarix tubsiz dengizki, uning ichidan qancha qahramon axtarsangiz, topiladi. Balki, bu qahramonlar ham tarixning qaysidir puchmoqlarida mavjud bo‘lgandir. Yusuf Boqiy degan kallakesar jallod Ali Shahiniyni o‘ldirib yuboradi va g‘azal-lariga ega chiqadi.

Ushbu kitobni mutolaa qilar ekanmiz, yosh adibning o‘ziga xos yozish uslubi borligi, uncha-muncha G‘arb-u Sharq adabiyotlaridan xabardor ekanligi oydinlashadi. Faqat bu uslubni yanada kengaytirish, sayqallashtirishni tasviya qilgan bo‘lardik.

Yozuvchining esa mudom ezgulik, ha, Ezgulik tarafida qolishini tilaymiz. “Eynshteyn jumbog‘i” hikoyasi qahramoni Azim uy-joyli, oilali inson, katta bir bankda ishlaydi va yaqinda bankning kredit bo‘limi boshlig‘i etib tayinlanadi. Azim ota-onasidan yetim qolgandan so‘ng mehribonlik uyida tarbiyalanadi. Ayoli Malika bilan sevishib turmush quradi. Boshida Malikaning ota-onasi norozi bo‘lishadi. “Azim bilan u sevishib turmush qurgandi. Boshida ota-onasi yigit erta yetim qolib, mehribonlik uyida ulg‘aygani uchun o‘ylanib qolishgandi. Bir tomondan, ancha qarshilik qilishdi, qizlari-ni bu murodidan qaytarishga jonlarini jabbor-ga berib tirishishdi, boshqa tomondan esa ikkilanishardi. Ikkilanishda har ikki yo‘lga mayl, moyillik bo‘ladi. Onasining so‘zi bilan aytganda: “Bunaqa oilaparvar yigitlar hozirgi zamonda anqoning urug‘i”. Xullas, hamsoya-xalq, qarindosh-urug‘ va tanish-bilishlarning oldida xo‘hish-irodalarini mustamkam qilib, ularning oila qurishlariga monelik qilishmadi. Pirovardida, ikki yoshning orzusi ushalgandek bo‘ldi.” Ma‘lumki, badiiy adabiyotda yetim bolalar fojeasi tasvirlangan asarlar juda ko‘p va bu hamisha o‘quvchilar qalbini chuqur qayg‘uga soladi. Masalan, O‘zbek xalq yozuvchilari G‘afur G‘ulomning “Mening o‘g‘rigina bolam”, Tohir Malikning “Alvido, bolalik” asarlarida yetim bolalarning taqdirleri tasvirlangan. Yangicha aspektda yoritilgan asarda katta axloqiy-falsafiy muammoning gumanistik mohiyati badiiy niyatni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. “Eynshteyn jumbog‘i” hikoyasida esa tinch hayotda yashab boshlagandan keyin ham, na xizmat vazifasini, na turmush o‘rtoqlik burchuni to‘la bajar olmagan, “Men dahoman, men aqlliman va barcha jumboqlarni yecha olaman,” – deya umr kechiradigan Azim xarakteri ichki nutq, xatti-harakat, hayotiy tafsilotlar orqali ochib berishga harakat qiladi. Yozuvchi boshlanmasidanoq asar g‘oyasiga, ifodalamoqchi bo‘lgan mazmuniga ishora qiladi: - “Dekabrning asov shamoli tun bag‘rida jin chalganday o‘zini har yonga uradi. Sovuqdan junjikkan imoratlarni qurshab olib, bo‘riday uvillaydi. Imoratlar esa uning ta‘qibidan cho‘chi-ganday bag‘ridagi darchalarning chiroqlarini o‘chirgan, tunning bir parchasi bo‘lishga inti-layotgan bo‘ladi. Biroq bu binolar biqinidagi ko‘rinishidan g‘arib, bir turtkidanoq to‘kilib tu-shadigandek va o‘z turq-tarovatidan uyalib o‘sha turtkiga mushtoqdek taassurot uyg‘otadigan ikki qavatli kottejning pastki qavatidagi deraza-dan zaifgina yorug‘lik miltillaydi.” Hikoya qahramoni Azim ota onasidan yetim qolgandan so‘ng, mehribonlik uyiga tarbiyalanadi. Universitetda o‘qib “Istiqlolbank” xususiy bankiga ishga kiradi.

Shijoatli mehnat qilgani uchun bankning boshqaruvchisining e'tiboriga tushadi va kredit bo'limiga boshliq etib tayinlanadi.

Xotiralarni laylak qor uyg'otadi. Derazadan yog'ayotgan qorga qarab eski kunlarni xotirlaydi. U kun ham laylak qor yog'gandi, u kuni laylak qor bilan uni kotibasi tabriklagandi. Azim yangi lavozimga tayinlanganini "yuvish" uchun hamkasblarini uyiga mehmonga chaqiradi. Azimning ayoli Malika ham oliyjanob, mehribon ayoldir. Malika tumusho'rtog'ining qo'liga 10tacha somsa beradi va ularni kekxa qo'shni Salim boboga berib kelishini tayinlaydi. Hammasi shu somsadan boshlanadi. Somsalar o'ralgan gazetada "Eynshteyn jumbog'i" degan maqolani o'qib qoladi.

Azimning oilasi kambag'al bo'ladi. Faqat dadasi bilan yashaydi. Dadasi qorovul bo'lib ishlaydi ammo doim uyga kitob tashiydi. Nega, chunki bolasini daho bo'lishini istaydi. Otaning fikrlariga ko'ra o'g'li uni kambag'allikdan chiqaradi deb hisoblaydi. U o'g'lini "vunderkind" bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Maktabda Azimni geniy deb atashadi. Chunki 5-6 yoshidan dadasi olib kelgan hamma kitoblarni o'qigan. Va bu o'qiganlari sababli qo'liga tushgan skanvord va boshqotirmalarni tezda yechadigan bir aqilli inson bo'lib yetishadi. Yoshligidan hamma skanvordlarni yecha olgan Azim "Eynshteyn jumbog'i" ni yechishni boshlaydi ammo qancha harakat qilsa ham javobini topa olmaydi. Uyda ham ishda ham u jumboq bilan shug'ullanadi. Bu tariqa ishi ham qolib ketadi va oilasi ham buzuladi. Azimning jumboqni yecha olmaganligi g'ururiga ham ketadi. "Nahotki, men "Eynshteyn jumbog'i"ni yecholmasam?! Axir o'ta bilimdon edim-ku. Bunga nega tishim o'tmayap'ti? Aqlim o'tmaslashib qoldimikan yo? Bitta Eynshteynning topishmog'ini topolmasam, shuncha o'qiganlarim qayoqqa ketdi unda? Nahotki men dunyodagi ikki foiz bilimdon kishilar toifasiga mansub bo'lmasam? Yo'q, unday bo'lishi mumkin emas. Nima uchun unda odamlar meni "geniy", "daho" deb ataydilar? Nega?!" Azim muvaffaqiyatsizlikka uchraganida alam bilan har gal shu so'zlarni xayolidan o'tkazar, jazavaga tushar, asabiylashardi." Jumboqni ortidan quvib 16 yil o'tadi va yoshi ham 45 ga borib qoladi. Yillar ketidan yillar keladi va aprel oyining bir kunlarida Azimning mashinasiga bir jurnalist minib qoladi va tushgunicha o'zi ishlayotgan gazetadan berib tushub ketadi. U gazetada oradan 16 yil kechib yana "Eynshteyn jumbog'i" gazetxonlar hukmiga havola qilingan edi. Azim xafsalasiz yana jumboqni yechishga kirishadi va javob osongina chiqadi. "Yangi gazetadagi topishmoqda esa bir so'z erish, o'zga'cha tuyuldi. Yugurib borib biroz oldin axlat qutisi'ga tashlagan 16 yillik "qadrdoni"ni qo'liga oldi va yangisi bilan solishtira boshladi. Barcha savollar to'g'ri. Lekin eski gazetada topishmoqni yechish'ga ko'mak beruvchi so'zlarning biri, ya'ni "Norvegiyalik havorang uyda yashaydi" degan so'z yangi gazetada "Norvegiyalik havorang uy oldida yashaydi" deya yozilgandi. "Nega bular bir-biri'dan farq qilayapti?" xo'rsindi u. Fursat o'tmay boshi devorga urilgandek bo'ldi. U hammasini tushundi. Hamma, hammasini! Aslida yordamchi so'z "Norvegiyalik havorang uy oldida yashay'di" bo'lgan. Ammo eski gazetada birgina

“oldi” so‘zi tushib qoldirilib, katta xatoga yo‘l qo‘yilgan. Shuning uchun ham har gal javob to‘g‘ri chiqavermagani. To‘g‘ri ham chiqmasdi-da!.. Birgina “oldi” so‘zi emas, unga qo‘shilib Azimning 16 yillik umri ham tushib qolgandi.” Bu hikoyada har narsaning ham chegarasi bo‘lishi tasvirlangan. Ba‘zan inson o‘zini har narsaga qodir deb hisoblaydi, ammo ming afsuski unday emas.

Darhaqiqat, hammasiga Azimning g‘ururliligi, bemehr va beparvoligi, eng asosiysi, ma‘naviy jihatdan boy ammo g‘ururi undan ham buyukligi sabab bo‘ladi. “Eynshteyn jumbog‘i” hikoyasida o‘ziga xos uslub orqali xarakter mantig‘i, qahramon ruhiyatini yoritish vositasida adib teran ijtimoiy umumlashmalar yaratadi. Hayotda turli xil vaziyatlar bo‘ladi. Shunday paytlarda ham inson o‘zini qo‘lga olib, yashashda davom etishi, qiyinchiliklarga qaramasdan kurashdan to‘xtamasligi kerak. Zero, har bir kelgan sinov ortida uning misli ko‘rilmagan darajadagi mukofoti bo‘lishi tayin. Azizbek Norovning keyingi asarlarida uslub yanada teranlashadi. Zero, “Uslub davrdan davrga, yozuvchidan yozuvchiga, yozuvchining asaridan asariga o‘tgan sayin o‘zgarib boradi”

Xulosa qilib aytganda, hikoyani yana tahlil qiladigan bo‘lsak, e‘tibor qaratilmagan ko‘plab qirralari topilishi mumkin. Adabiyot mana shunday qudratga ega. Birgina so‘zdan ham bir olam ma‘no chiqarish mumkin. Azizbek Norov ham bu hikoyasi orqali olam ma‘no yaratgan, deya ikkilanmay aytishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Adabiyotshunoslikka kirish. Dilmurod Quronov.
2. Adabiyotshunoslik asoslari. Muallif: Boboyev T. Chop etilgan yil: 2002. Nashriyat: O‘zbekiston. Toshkent.
3. Adabiyotshunoslik lug‘ati.-T.: Akadernashr, 2013. 2. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari - T.: O‘zbekiston,. 2002. 3. Bahodir Karim «O‘tkan kunlar”.
4. Azizbek Norov. “Azal va obod yo‘li” Toshkent “Akadernashr” 2022